

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDA FANLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.IJODKORLIKNING FANLARARO BOG'LQLIGI .

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7894721>

Xamidova Diyora Rustam qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Maktabgacha ta'limga va pedagogika kafedrasiga o'qituvchisi.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik va ijodkorlikni fanlararo bog'liqlikning ahamiyati o'rganilgan. Bundan tashqari boshlang'ich ta'linda ijodkorlikni rivojlantirishga oid tushunchalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar.

Ta'limga, ijodkorlik, texnologiya, qobiliyat, tasavvur, pedagogika, iroda, diqqat, tafakkur.

Аннотация.

В данной статье исследуется значение междисциплинарности и междисциплинарности творчества в формировании творческой деятельности младших школьников. Кроме того, приведены концепции развития творчества в начальном образовании.

Ключевые слова.

образование, творчество, технологии, способности, воображение, педагогика, воля, внимание, мышление.

Annotation.

This article explores interdisciplinary engagement and the importance of interdisciplinary engagement in shaping the creative activities of Primary School students. In addition concepts related to the development of creativity in primary education have been cited.

Keywords.

education, creativity, technology, ability, imagination, pedagogy, will, attention, thinking.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'quvdarsliklarining o'rni beqiyosdir. O'quv darsliklari har tamonlama mukammal tuzilgan, ta'limga tizimida belgilangan talablarga javob bera oladigan bo'lishi

lozimdir. Bolalarda ijodkorlikni ilk ko'rinishini maktabgacha ta'lif davridan boshlab shakllantirib borish maqsadga muofiqdir. Bolada ijodkorlikni qanday aniqlash mumkin degan savol tug'iladi, bunga javoban shunday deyishimiz mumkinki bolaning qanday qobiliyatি borligi, uning asosan nimalarga qiziqishini bolani ko'zatish orqali, u bilan suhbatlashish, birga mashg'ulotlar olib borish orqali aniqlashimiz mumkin. Xattoki shuni takidlab o'tishimiz joizki oddiy bola bilan birgalikda o'ynash orqali ham ularning qiziqishlari yuzaga chiqadi. Demak, boladagi ijodkorlikni nafaqat aniqlash, balki shakllantirishda ham psixologiya fani muhim rol o'ynaydi.

Ko'zatishimiz mumkin kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishini harakatga keltiradigan turli ziddiyatlar va qarama qarshiliklar vujutga keladi. Aynan shu jiddiyatlar zamirida o'quvchidagi psixik kamolotning darajasi va talablar bilan ijobjiy hislatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko'zatish mumkin.

Ijodkorlikni shakllantirishda bola ruhiyati ham muhimdir. Talablarning yanada ortishi o'quvchini psixik jihatdan uzliksiz rivojlanishini taqoza etadi va buning natijasida insonning kamoloti amalga oshadi. Psixologiya fani boladagi ijodkorlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchida o'ziga nisbatan ishonch hissi bo'lsagina u o'zidagi istidodni yuzaga chiqarishdan qo'rqlaydi. Bundan tashqari o'quvchilarga berilgan rag'bat ularni yanada o'z ustida ishslash bilan birgalikda muofaqiyatga yetaklashga kuch beradi.

Boshlang'ich sinf darsliklari aynan o'quvchilardagi qobiliyatni shakllantirish va yuzaga chiqarishda ustuvor vazifadir. Boshlang'ich sinflarga o'tiladigan texnologiya darslarida o'quvchilar nafaqat ijokorlik qobiliyatlarini shakllantiribgina qolmay, o'zlarining aqliy rivojlanishini ham shakllantirib borishadi. Ulardagi yaratuvchanlik, fikrlash qobiliyatları kengayib boraveradi. O'quvchilarda tasavvur qilish va tasavvur orqali ijodkorlikning yangi ko'rinishlari vujudga keladi. Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnama tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lif tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limi tarbiya asoslaridir. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun ham boshlang'ich ta'lif darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga muhim o'rin egallaydi. Boshlang'ich ta'lifda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi Interfaol o'yinlar ham asosiy rol o'ynaydi. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy,

psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko`nikmalarni rivojlanishiga yordam beribgina qolmasdan o`quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o`ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof -muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to`sqliarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantiradi .Aytishimiz mumkinki ijodkorlik har bir javhada nomoyon bo'lib boraveradi. Bularning bari o`quvchilarga fanlararo bog`liqliknii o`rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to`liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lismizda alohida o'rinni tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi, "Ta'lism to'g'risida"gi qonunlari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ga muvofiq boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish bilan birgalikga tilimizni mukammal o'rgatish maqsadida yangi-yangi vazifalar qo'yilgan.Ona tili fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o'z fikrini erkin va ta'sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tili qonun- qoidalarini ongli o'zlashtirishga o'rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimizga, milliy urfatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. Ona tili darslari orqali o`quvchilarni ijodiy faoliyatni ortadi,o'qish texnikasi rivojlanadi, o'zlarini fikrini bildirish bilan birgalikda o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglashni o'rganishadi.Boshlang'ich sinf o`quvchilarini ijodiy faoliyatini rivojlantirish bilan birgalikda bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllanadi,

atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushunchalari ortadi.

Ona tili darslarida o`quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishda ona tili darslarida qo'llaniladigan usullar:

- Yozma ishlar
- Insholar
- Testlar

Bundan tashqari tasviriy san'at darslari ham o`quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tasviriy san'at darslari o`quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishini orttirish bilan birgalikda ranglar orqali ijodkorlikni

shakllantiradi. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk ijodkorlikni ko'zatishimiz mumkin. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar tasavvur olamini boyitadi. Fikrlash va tahlil qilish, kreativlik shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'linda o'tilayotgan texnologoya darslari ham o'quvchilarda ijodiyotni rivojlantiribgina qolmay, ularda ilg'orlik va o'z ustida ishlashga undaydi. O'quvchilar mustaqil o'z ijodkorliklarini nomoyon qilishadilar. Texnologiya darslarida o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishda turli xil metodlardan foydalaniladi.

- hamkorlikdagi ijodiy faoliyat
- mustaqil ijodiy faoliyat
- aqliy faoliyat
- tasavvurdagi ijodiy faoliyat
- amaliy faoliyat

Boshlang'ich ta'linda o'tiladigan musiqa darslari ham ijodkorlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa darslari o'quvchilarga ko'tarinki kayfiyat, zavqlanish, erkinlikni shakllantiradi. Musiqa nafaqat ijodkorlik, balki nutq madaniyatini ham rivojlantirishda asosiy o'rindadir. Nutq ham ijodiyotning bir qismidir. O'z fikrini to'g'ri yetkaza bera olish ham bir san'atdir. Boshlang`ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnama, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rinn tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang`ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Boshlang`ich ta'linda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o`yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo`lar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundankunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallahsha o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lif sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lif
2. Epifani D.B. Ijodkorlik psixologiyasi. Darslik. Foyda. - M.: Akademiya, 2002.-320s.
3. Levin, V.A. Ijodkorlikni tarbiyalash. - Tomsk: Peleng, 1992 yil
4. Bogdanova T.G. Kornilova T.V. Bolaning kognitiv sohasini diagnostikasi. M.: Rospedagenstvo, 1994 y.
5. Vygotskiy L.S. Bolalikdagi tasavvur va ijod // Psixologiya. - M.: Eksmo-Press, 2000. -S.807-819
6. Dorfman L.Ya., Kovaleva G.V. Ilm-fan va san'atdagi ijodkorlik bo'yicha tadqiqotlar. // Psixologiya savollari. 1999. № 2.
7. Levin, V.A. Ijodkorlikni tarbiyalash. - Tomsk: Peleng, 1992 yil
8. 3. www.ziyonet.uz